

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/11 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOY MUAMMOLARINING IJTIMOY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamovna</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVİY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javlijeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

THE ROLE OF IDEOLOGICAL EDUCATION IN FORMING A SPIRITUALLY MATURE YOUTH WORLDVIEW

Xudoykulov Azamat Beshumovich,

Acting Associate Professor,
Department of History and Social Sciences,
University of Economics and Pedagogy
E-mail: azamatxudoykulov@gmail.com

Abstract. This article examines the role and significance of ideological education in shaping the worldview of spiritually mature youth. It analyzes the influence of globalization, information flows, and value-based factors on young people's moral development, social activity, and perception of the world. The study explains how ideological upbringing fosters critical thinking, strong life principles, and commitment to national and universal values among the younger generation.

Keywords: ideological education, spiritual maturity, youth worldview, national, values, spirituality, globalization, upbringing.

MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RN

Xudoykulov Azamat Beshumovich,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrası dotsent. v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada barkamol yoshlarni tarbiyalash jarayonida g'oyaviy tarbiyaning tutgan o'rn va ahamiyati tahlil qilingan. Globallashuv sharoitida shakllanayotgan axborot maydoni, yoshlarning dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlari va ijtimoiy faolligiga ta'sir ko'rsatadigan omillar yoritilgan. G'oyaviy tarbiya orqali yoshlarni mustahkam hayotiy pozitsiya, tanqidiy fikrlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatni shakllantirish jarayoni ilmiy asosda izohlangan.

Kalit so'zlar: g'oyaviy tarbiya, ma'naviy barkamollik, yoshlar dunyoqarashi, milliy qadriyatlar, ma'naviyat, globallashuv, tarbiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N25>

Kirish. Insonga faqat atrof-voqelik haqida, odob-u axloq qoidalari haqida bilim berishning o'zi uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi uchun yetarli bo'lmaydi. "Ma'naviy barkamol yoshlar tarbiyasi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Yoshlarning sog'lom dunyoqarashi, ma'naviy immunitetini mustahkamlash, ularni yot g'oyalardan asrash borasida davlat tomonidan tizimli ishlar oli borilayotgani alohida qayd etiladi" [1, B 34-bet].

Unda iroda qudrati, mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, ko'nglida atrof-tabiaga, mehnatga, kasbga, ilmga, o'zga insonlarga mehr uyg'otish, dilida ulug' maqsadlar tug'ilishiga erishish lozim. Masalan, tan olib aytish kerakki, Vatan yoki Adolat tuyg'usi haqida kitoblarda

yoʻzilganlarni oʻqib chiqqan odam darhol Vatanning qadriga yetadigan, yoki Adolatga xiyonat qilmaydigan boʻlib qoladi, deb tasavvur qilish oʻta soddalik boʻlur edi. “Maʼnaviy barkamol yoshlarni tarbiyalash jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki gʻoya insonning dunyoqarashi, eʼtiqodi va maʼnaviy yoʻnalishini belgilovchi konseptual tamoyildir” [2, B 53-bet].

Har bir inson Vatan, Millat, Adolat timsol-tushunchalarining oʻz ruhidagi poydor maʼnaviy qadriyatlarga aylanishi uchun oʻzgalar ibratida sinashi, bu yoʻlda riyozat chekishi, ularga nisbatan koʻnglida mehr uygʻonishi zarur. Bunga turli yoʻllar, turli vositalar bilan, birinchi navbatda yosh avlod tarbiyasiga samimiy (chin koʻngildan) va izchil yondashuv, tinimsiz izlanishlar bilan erishiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi. Mumtoz adibimiz Abdulla Qodiriyning “Oʻtgan kunlar”ida tasvirlangan oʻzbek oilalariga xos odob va axloq namunalarini ibrat qilib koʻrsatadi. Oʻzbek xalqining azaliy bolajonligi, oilaparvarligini iftixor bilan taʼkidlar ekan, muallif bunday ezgu tuygʻular farzandlarni “yoshlik chogʻidan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak maʼnaviyat asosida voyaga yetkazish” yoʻlida sarflanishi lozimligini alohida uqdiradi.

“Globallashuv sharoitida yoshlar ongida turli mafkuraviy taʼsirlar kuchayib borayotgan bir paytda ularni toʻgʻri mafkuraviy yoʻnalishga ega qilib tarbiyalash dolzarb masaladir. Gʻoyaviy tarbiya yoshlarning fuqarolik masʼuliyati, milliy oʻzlikni anglash, ijtimoiy faollik va maʼnaviy poklik kabi fazilatlarni rivojlantiradi” [3, B 72-bet]. Insonga faqat atrof-voqelik haqida, odob-u axloq qoidalari haqida bilim berishning oʻzi uning maʼnaviy-axloqiy tarbiyasi uchun yetarli boʻlmaydi. Unda iroda qudrati, masʼuliyat tuygʻusini shakllantirish, koʻnglida atrof-tabiaga, mehnatga, kasbga, ilmga, oʻzga insonlarga mehr uygʻotish, dilida ulugʻ maqsadlar tugʻilishiga erishish lozim. Masalan, tan olib aytish kerakki, Vatan yoki Adolat tuygʻusi haqida kitoblarda yoʻzilganlarni oʻqib chiqqan odam darhol Vatanning qadriga yetadigan, yoki Adolatga xiyonat qilmaydigan boʻlib qoladi, deb tasavvur qilish oʻta soddalik boʻlur edi. Har bir inson Vatan, Millat, Adolat timsol-tushunchalarining oʻz ruhidagi poydor maʼnaviy qadriyatlarga aylanishi uchun oʻzgalar ibratida sinashi, bu yoʻlda riyozat chekishi, ularga nisbatan koʻnglida mehr uygʻonishi zarur. Bunga turli yoʻllar, turli vositalar bilan, birinchi navbatda yosh avlod tarbiyasiga samimiy (chin koʻngildan) va izchil yondashuv, tinimsiz izlanishlar bilan erishiladi.

Mustaqil Oʻzbekistonda milliy taʼlim tizimini jahon meʼyorlariga moslashtirish boʻyicha salmoqli islohotlar amalga oshirildi va bugungi kunda ularning dastlabki samaralari koʻzga tashlanmoqda. Ammo bu sohada ajdodlarimiz bizga meros qoldirgan beqiyos boylik juda katta imkoniyatlarni oʻz xazinasida asrab kelmoqda-ki, ularni toʻliq ishga solish nafaqat millat tarbiyasiga, balki jahon pedagogika ilmi rivojiga ham oʻz sezilarli ulushimizni qoʻshishga sabab boʻlishi mumkin.

Yan Amos Komenskiy (1592-1670) “Buyuk didaktika”ni orzu qilganda zamon butkul boshqacha edi. Bu ulugʻ muallim va uning izdoshlari jahon taʼlim-tarbiya tizimida amalga oshirgan inqilob XX asrning birinchi yarmiga kelib, nafaqat Yevropada, balki yer yuzining deyarli barcha mamlakatlarida keng joriy etildi va insoniyat taraqqiyotida katta burilish yasadi. Bu tizim asosan ilm maʼrifati (ilm tarbiyasi) tamoyilini bosh yoʻnalish qilib olgan edi va, darhaqiqat, jahon ilmining yuksak taraqqiyotini taʼminlashga hal qiluvchi hissa qoʻshdi.

Ammo bugungi kunga kelib ilm-fan shunday taraqqiy etdi-ki, endi, birinchidan, “barchaga barcha narsani oʻrgatish”(“uchit vse vsemu”) prinsipini astoydil amalga oshirish

mohiyatan mumkin bo'lmay va kerak bo'lmay qoldi. Ikkinchidan, yosh avlod tarbiyasida XVII-XVIII asr Yevropa ma'rifatchilari tasavvur ham qilmagan muammolar birinchi darajali ahamiyat kasb eta boshladi. Shunday qilib, XXI asr boshlanishida ta'lim-tarbiya tizimini yana tubdan yangilash ehtiyoji kun tartibiga qo'yildi. "Zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida tarqalayotgan yot g'oyalarga qarshi kurashishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, axborotlarni tahlil qilish, internet makonidagi ma'lumotlarni saralash ko'nikmalarini shakllantirish muhim hisoblanadi" [4, B 46-bet].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tarixiy-siyosiy yondashuv asos qilib olingan. Bugungi kunda milliy tarbiya masalasi borgan sari dolzarblashib bormoqda. Biz endi bu sohada Yevropa ilmi erishgan yutuqlarni nazardan qochirmagan holda o'z milliy ma'naviy merosimiz an'alariga muvofiq mustaqil tarbiya tizimini ishlab chiqishimiz birinchi darajali vazifaga aylanmog'i kerak. Buning uchun, birinchidan, yuqorida tilga olingan (bugungi kunda Yevropa pedagogikasining asosini tashkil qiluvchi) "ilm ma'rifati" tamoyiliga qo'shimcha ravishda qadimdan milliy tarbiyamizga xos bo'lgan "mehr ma'rifati", "riyozat ma'rifati", "ibrat ma'rifati" tamoyillarini ham tarbiya nazariyasiga kiritish va ongli va to'laqonli ravishda tarbiya amaliyotiga tatbiq etish lozim bo'ladi. Demakki, ushbu tamoyillarni qachon (qaysi yoshda) va qanday usullar bilan tarbiya jarayonida qo'llash tartib-qoidalarini puxta ishlab chiqish, ya'ni farzandlarimiz tarbiya jarayonining turli davrlariga (oilada bola dunyoga kelmasidan ilgari bo'lg'usi ota-ona, ya'ni kelin-kuyovlarni oila qurish va bola tarbiyasiga tayyorlashdan boshlab, yangi tug'ilgan bolaga munosabat, bog'cha tarbiyasi, boshlang'ich maktab, tayanch maktab, ya'ni 5-9 sinflar, kollej va litseylar, oliy maktab, oliy toifali mutaxassislar tayyorlash, ya'ni magistratura, aspirantura, doktoranturagacha) xos bo'lgan barcha inson jismidagi anatomik, fiziologik va uning ruhiyatidagi o'zgarishlarni hisobga oluvchi mukammal tizim yaratish va uni hayotga joriy qilish yo'llarini aniqlash taqozo etiladi.

Ikkinchidan, yosh avlodda o'z hayotiga, oila a'zolariga nisbatan, Vatan va millat oldidagi, balki atrof-tabiat, butun kurrayi zamin va jami bashariyat oldidagi mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish bugungi kun pedagogikasining eng muhim masalasi ekanligini barcha qiyinchiliklari bilan ro'yi-rost ko'ra bilish va shunga yarasha choralar tizimini ishlab chiqish kerak bo'ladi. Bu muammoni to'g'ri yechimiga erishish uchun pedagogik ta'lim sohasida nimalarga e'tibor qaratish va qanday o'zgarishlarni amalga oshirish lozimligini aniqlab, uni hayotga joriy etish ham talab etiladi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida tilga olingan vazifalarni amalga oshirish uchun nimalarga e'tibor berish kerak. Eng avvalo, tarbiyaning ikki bosqichi mavjudligini unutmaslik zarur. Albatta, asosiy maqsad – yosh avlod tarbiyasi, ammo bu maqsadga erishish uchun ishni birinchi bosqichda tarbiyachilarni tarbiyalashdan boshlash kerak bo'ladi. Ushbu masala bilan bog'liq holda milliy tarbiya yo'nalishlari va milliy tarbiya usullarini bir-biridan farq qilishimiz lozim. Tarbiya yo'nalishlari deganda tarbiyalanuvchilar ma'naviyatining turli qirralarini shakllantirish nazarda tutiladi, tarbiya usullari esa tarbiya jarayonida qo'llaniladigan turli ta'sir vositalarini nomlash uchun ishlatiladigan timsol-tushunchalar bo'lib, to'lig'icha tarbiyachilarga aloqador narsa. Masalan, mehr tarbiyasi, ibrat tarbiyasi, o'yin orqali tarbiyalash, va'z (ma'viza) usuli, mukofot va jazo usuli, mehnat tarbiyasi, turli ta'lim tizimlari va hokazolar tarbiya usullariga kiradi. Tarbiya yo'nalishlari esa inson va jamiyat hayotining asosiy sohalari va shaxs ma'naviyatining tarkibiy jihatlari bo'yicha ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirish uchun

zarur bo'lgan yoshlar tarbiyasining barcha asosiy va qo'shimcha turlarini qamrab oladi. Ulardan ba'zilariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Ibrat tarbiyasi tarbiya sohasida juda muhim o'rin tutadi. Inson o'z mukammal e'tiqod tizimini shakllantirib olmaguncha, ibrat tarbiyasi unga ta'sir ko'rsatishning asosiy usuli bo'lib qola beradi. Agar ba'zilar balog'at yoshidan ancha o'tib ketganlarida ham o'z mustaqil e'tiqod tizimiga ega bo'lmasliklari mumkinligi nazarda tutilsa, ibrat tarbiyasining ahamiyati naqadar salmoqli ekanligi yanada ayon bo'ladi. Ibrat tarbiyasida eng katta yuk tarbiyachiga tushadi. "Ma'naviy barkamollikning yana bir muhim jihati – milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unligidir. Yosh avlod milliy merosni chuqur bilgan holda global tafakkurga ega bo'lishi kerak. Bu uyg'unlik ularning dunyoqarashini kengaytiradi, zamonaviy jamiyatda faol bo'lishiga xizmat qiladi" [5, B 47-bet].

Inson va jamiyat hayoti uch asosiy sohadan iborat ekanligi ma'lum. Demak, tarbiyani har uch sohada o'zaro mutanosib olib borilmasa, maqsadga erishilmaydi. Bundan tashqari, ma'lumki, hayotda iqtisod, siyosat, ma'naviyat sohalari bir-biridan ajralgan, sof holda uchramaydi, shu sababli ko'pincha ularning o'zaro kesishuvida mohiyatan murakkab tarbiya yo'nalishlari shakllanishi mumkin. Tarbiya tushunchasi o'zi asli ma'naviyat sohasiga tegishli bo'lgani sababli biz bu o'rinda asosan shaxs ma'naviyatining asosiy jihatlari shakllantirishga qaratilgan tarbiya yo'nalishi bo'lmish ma'naviy tarbiya masalasiga e'tibor qaratamiz.

Ma'naviy tarbiya ikki bosqichda bo'ladi. Birinchi bosqich shaxs ma'naviyatining asosiy tarkibiy jihatlari — imon, ilm, mas'uliyat, mehr tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, e'tiqod tarbiyasidan boshlanadi. Ikkinchi bosqich ma'naviyatning moddiy voqelikda akslanishi, ya'ni madaniyat bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha ma'naviyat va iqtisod, ma'naviyat va siyosat kesishuvida shakllanadigan murakkab tarbiya yo'nalishlaridan iborat bo'ladi.

Hali yosh avlod ma'naviy tarbiyasi yo'lida qilinishi zarur bo'lgan ishlar ko'p. Qolaversa, bu sohadagi ishlarimizning jahon fani va insoniyat ma'naviy takomili yo'lidagi ahamiyatini ham unutmasligimiz kerak.

Xulosa va takliflar. "Xulosa qilib aytganda, g'oyaviy tarbiya yoshlar dunyoqarashining poydevorini tashkil etadi. U mustahkam e'tiqod, sog'lom fikrlash, ijtimoiy faollik va vatanparvarlik kabi fazilatlarini shakllantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi" [6, B 32-bet].

Shu yo'sinda g'oyaviy tarbiya yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda mamlakatimizda demokratik fuqarolik jamiyatini qurish bilan bog'liq bo'lgan ustuvor yo'nalishlar belgilab olingan. Shu boisdan, demokratik jamiyat barpo etishda faol ishtirok etadigan har tomonlama yetuk ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish dolzarb muammolardan biriga aylandi.

Yurtimizda istiqlol yillarida amalga oshirilayotgan qator islohotlar qatorida kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadida ta'lim tizimini isloh qilish, o'zini anglagan ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish muhim ekanligi aniqlab olindi.

Demokratik jamiyat qurish jarayonida kadr masalasi, bilimli, yetuk avlodni, intellektual salohiyatga ega bo'lgan ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishda g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyani yanada takomillashtirish eng asosiy vazifamizga aylanishi kerak.

Mamlakatimizda yashayotgan ko'pmillatli fuqarolarning ijtimoiy hamkorligini ta'minlab, o'sib kelayotgan yoshlarni har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishida ularning umuminsoniy qadriyatlaridan keng foydalanish lozim.

Maqola natijalariga tayanib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Eng avvalo, ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy mafkuraviy islohotlarni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligini hamda amalga oshirilayotgan qator islohotlar ta'lim tizimidagi kadrlar tayyorlash milliy modelini mazmun-mohiyatini, undan kelib chiqadigan talab vazifalarni yoshlar ongiga singdirish yo'llari va usul vositalarini yanada kengaytirishimiz va kuchaytirishimiz lozim.

Mazkur vositalarni amalga oshirishni:

- umumiy ta'lim maktab va o'rta maxsus kasb ta'limi tizimida;
- mahalla fuqarolari yig'ini doirasida;
- turli jamoat hamda, nodavlat va notijorat tashkilotlari doirasida tadbirlarni amalga oshirish orqali bajarish lozim;

-Demak, demokratiya faqatgina ijtimoiy-iqtisodiy asosga ega bo'lmay, balki, kuchli g'oyaviy-mafkuraviy negizga ham ega ekanligini hisobga olib, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirayotgan ilg'or va bunyodkor milliy g'oyamizni targ'ib va tashviq qilishni hamda tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirishimiz lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2008.
3. Abdullayev A., Jo'rayev R. Mafkura asoslari – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2014.
4. G'ulomov I, Globallashuv sharoitida mafkuraviy xavfsizlik masalalari. – Toshkent: Tafakkur, 2016.
5. Qodirov M., Qahhorova G. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
6. Sharipov A, Mafkuraviy jarayonlar va g'oyalar evolyutsiyasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2015.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).